

ASOSIY KO'RSATKICHLAR

- Oy yakunlariga ko'ra, savdolarning umumiy hajmi 1,51 trln so'mni (\$124,44 mln) tashkil etib, 2024-yil oktyabr oyiga nisbatan 65,64 mlrd so'mga yoki 4,16% ga kamaydi.
- Shu bilan birga, 948,31 mlrd so'mi (\$77,76 mln) yoki 62,78% birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan tuzilgan bitimlarga to'g'ri keldi. Savdo hajmining qolgan qismi listingdan tashqari savdo maydonchasi (LTSM) bitimlariga tegishli bo'ldi.
- Birja savdo maydonchalaridagi bitimlarning umumiy soni 38 270 tani tashkil etib, 2024-yilning oktyabr oyiga nisbatan 5 791 taga yoki 17,83% ga oshdi. Shundan 32 833 ta bitim kotirovkalash varag'iga kiritilgan qimmatli qog'ozlar bilan, 5 437 ta bitim esa listingdan tashqari savdo maydonchasida amalga oshirilgan.
- O'rtacha kunlik savdo hajmi 68,66 mlrd so'mni (\$5,66 mln), o'rtacha kunlik bitimlar soni esa 1 740 tani tashkil etdi.
- Oy yakuniga ko'ra, UCI indeksi 1,0 foizga oshib, 707,76 punktni tashkil qildi.

BOZOR SHARHI**AKSIYA BOZORI**

Aksiyalar bozorida savdolar hajmi 926,41 mlrd so'mni (\$75,96 mln) tashkil etib, 2024-yilning oktyabr oyiga nisbatan 406,73 mlrd so'mga yoki 31% ga kamaydi. Shu o'rinda, savdolarning asosiy hajmi (796,43 mlrd so'm) Free of Payment (FoP) platformasiga to'g'ri keldi.

Aksiyalar bozorida savdolarning o'rtacha kunlik hajmi 42,11 mlrd so'mni (\$3,45 mln), bitimlarning o'rtacha kunlik soni esa 1 442 tani tashkil etdi.

Oy yakuniga ko'ra, aksiyalar bozorining kapitallashuvi 2,69 trln so'mga yoki 1% ga oshib, 270,62 trln so'mni (\$22,50 mlrd) tashkil qildi. Erkin muomalada bo'lgan (free float) aksiyalarning bozor kapitallashuvi 3,74 trln so'mni (\$310,99 mln) tashkil etdi.

Oy yakuniga ko'ra, 93 ta aksiya emitentlarining 135 ta instrumentlari Birja kotirovkalash varag'ida joylashtirildi.


Aksiyalar bozorining asosiy ko'rsatkichlari

		10/21	10/22	10/23	10/24	10/25
Savdo hajmi	<i>mln so'm</i>	18 252	13 261	18 261	1 333 134	926 406
O'rtacha kunlik savdo hajmi	<i>mln so'm</i>	913	631	870	60 597	42 109
Bitta bitimning o'rtacha hajmi	<i>mln so'm</i>	3	3	1	47	29
Bitimlar soni	<i>dona</i>	6 723	4 630	39 378	28 479	31 726
O'rtacha kunlik bitimlar soni	<i>dona</i>	336	220	1 875	1 295	1 442

UCI INDEKSI

Oy yakuniga ko'ra, UCI indeksi 1,0 foizga oshib, 707,76 punktni tashkil etdi.

2025-yil Oktyabr oyi uchun UCI indeksi grafigi



OBLIGATSIYALAR BOZORI

Korporativ obligatsiyalar bozorida savdolar hajmi 21,91 mlrd so'mni (\$1,81 mln) tashkil etib, 2024-yilning oktyabr oyiga nisbatan 21,04 mlrd so'mga yoki 25 barobarga oshdi.

Obligatsiyalar bozorida savdalarning o'rtacha kunlik hajmi 995,74 mln so'mni (\$82 115), o'rtacha kunlik bitimlar soni esa 50 tani tashkil etdi.

Birja kotirovkalash varag'iga kiritilgan obligatsiyalarning bozor qiymati 1,95 trln so'mni (\$161,84 mln) tashkil etdi.

Oy yakuniga ko'ra, 11 ta obligatsiya emitentlarining 22 ta instrumentlari Birja kotirovkalash varag'ida joylashtirildi.

Obligatsiyalar bozorining asosiy ko'rsatkichlari

		10/21	10/22	10/23	10/24	10/25
Savdo hajmi	mln so'm	0	8 271	2 414	870	21 906
O'rtacha kunlik savdo hajmi	mln so'm	0	394	115	40	996
Bitta bitimning o'rtacha hajmi	mln so'm	0	636	40	4	20
Bitimlar soni	dona	0	13	61	215	1 107
O'rtacha kunlik bitimlar soni	dona	0	1	3	10	50

LISTING

Oy oxirida birja kotirovkalash varag'ida 101 emitentning 153 ta instrumenti kiritildi.

LISTINGDAN TASHQARI SAVDO MAYDONI (LTSM)

Oy yakuniga ko'ra, Birjaning listingdan tashqari savdo maydonchasida 5 437 ta bitim tuzilib, o'tgan yilning oktyabr oyiga nisbatan 43,76% ga oshdi.

Savdolar hajmi 562,11 mlrd so'mni (\$46,68 mln) tashkil etib, o'tgan yilning oktyabr oyiga nisbatan 132,23% o'sish qayd etildi.

108 ta emitentning qimmatli qog'ozlari bitimlar obyekti bo'ldi.